

**BO‘LAJAK SURDOPEDEGOGLARNING METODIK KOMPETENSIYASINI
SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMNING PEDAGOGIK
IMKONIYATLARI**

Тешабоева Феруза Рахимовна

Қўқон давлат университети v.b.professori, (PhD)

E-mail: feruzaxon2238@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak surdopedagoglarni kar bolalar nutqini rivojlantirishga tayyorlash jarayonida mustaqil ta’limning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Mustaqil ta’limning metodik, tahliliy, innovatsion, ijodiy hamda refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Surdopedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, internet-resurslar, ilmiy manbalar va interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanishning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, surdopedagogika, kar bolalar, nutqni rivojlantirish, metodik kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, refleksiya, ijodiy kompetensiya.

Bugungi kunda maxsus pedagogika tizimida bo‘lajak surdopedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Kar bolalar nutqini rivojlantirish murakkab korreksion-pedagogik jarayon bo‘lib, mutaxassisdan nafaqat nazariy bilim, balki yuqori darajadagi metodik, kommunikativ va tahliliy kompetensiyalarni ham talab qiladi. Mazkur kompetensiyalarni shakllantirishda auditoriya mashg‘ulotlari bilan bir qatorda mustaqil ta’lim ham muhim o‘rin egallaydi.

Mustaqil ta’lim talabalarning ilmiy izlanish olib borish, metodik vaziyatlarni tahlil qilish, nutqiy mashg‘ulotlarni loyihalash, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash hamda pedagogik refleksiyani rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli surdopedagoglarni tayyorlash tizimida mustaqil ta’lim innovatsion mexanizm sifatida qaralmoqda.

Bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligida metodik kompetensiya markaziy o'rin egallaydi. Ushbu kompetensiya o'quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, olib borish va natijalarini tahlil qilish ko'nikmalarini qamrab oladi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalar korreksion mashg'ulotlar loyihalarini ishlab chiqish, lingvoimitatsion muhit yaratish hamda kommunikativ faoliyatni modellashtirish orqali metodik tayyorgarliklarini mustahkamlaydilar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim jarayonida shakllanadigan metodik kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- bilish kompetensiyasi;
- loyihalash kompetensiyasi;
- ijro kompetensiyasi;
- tahliliy-refleksiv kompetensiya;
- innovatsion kompetensiya;
- ijodiy kompetensiya.

Mazkur kompetensiyalar talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatida korreksion-pedagogik muammolarni mustaqil hal qilishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda mustaqil ta'lim shaxs rivojlanishining muhim omili sifatida talqin etiladi. Oliy ta'limning asosiy maqsadi talabalarning bilimlarni mustaqil egallash, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

P.I. Pidkasistiyning ta'kidlashicha, mustaqil faoliyat talabaning o'quv maqsadiga yo'naltirilgan, ichki motivatsiya asosida amalga oshiriladigan hamda muayyan natijaga qaratilgan faoliyatidir. Ushbu yondashuv surdopedagogika ta'limida ayniqsa muhim hisoblanadi, chunki bo'lajak mutaxassislar kar bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha murakkab pedagogik vaziyatlarni mustaqil hal qila olishlari zarur [2].

L.V. Siganova talabalarda strategik fikrlashni rivojlantirishda loyihalash texnologiyalarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Mazkur texnologiyalar

surdopedagogika yo‘nalishida nutqiy rivojlantirish bo‘yicha metodik materiallarni yaratish va tahlil qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi [4].

Y.V. Guseva internet manbalaridan samarali foydalanish orqali talabalarning mustaqil ish faoliyatini tashkil etish imkoniyatlarini asoslab bergan. Tadqiqotchining fikricha, axborot resurslaridan oqilona foydalanish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilad [3]i.

Raqamli ta’lim muhitining rivojlanishi surdopedagoglarni tayyorlash jarayoniga yangi imkoniyatlar olib kirdi. Multimedia texnologiyalari, videodarslar, elektron kutubxonalar, virtual ta’lim platformalari va interaktiv topshiriqlar talabalarning mustaqil faoliyatini faollashtirishga xizmat qilmoqda [5].

Kar bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha metodik materiallarni yaratish, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash jarayonida talabalarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

- nutqiy-korreksion faoliyatni rejalashtirish;
- pedagogik vaziyatlarni modellashtirish;
- innovatsion texnologiyalarni qo‘llash;
- ilmiy manbalar bilan ishlash;
- refleksiv tahlil olib borish;
- ijodiy yondashuv asosida metodik mahsulot yaratish.

Mustaqil ta’limning samaradorligi ayniqsa interaktiv va innovatsion metodlar bilan uyg‘unlashganda yuqori natija beradi.

Bo‘lajak surdopedagoglarni kar bolalar nutqini rivojlantirishga tayyorlashda mustaqil ta’lim kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim innovatsion mexanizmi hisoblanadi. Mustaqil ta’lim orqali talabalar metodik, tahliliy, refleksiv, innovatsion va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirib, kelajakdagi korreksion-pedagogik faoliyatga puxta tayyorlanadilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta’limni zamonaviy axborot texnologiyalari, interaktiv metodlar va ilmiy manbalar bilan integratsiyalash bo‘lajak

surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli surdopedagogika ta'limida mustaqil ta'limning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish va amaliyotga keng joriy etish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Leontev A.A. Osnovy psixolingvistiki. – Moskva: Smysl, 2005. – 287 b.
2. Pidkasistiy P.I. Organizatsiya uchebno-poznavatelnoy deyatelnosti studentov. – Moskva: Pedagogika, 2004. – 368 b.
3. Guseva Yu.V. Samostoyatel'naya rabota studentov v usloviyax informatizatsii obrazovaniya. – Moskva: Akademiya, 2017. – 214 b.
4. Siganova L.V. Proyektnaya deyatel'nost kak sredstvo formirovaniya professionalnix kompetensiy studentov. – Moskva: Yurayt, 2019. – 196 b.
5. Mitriev M.E. Informatsionno-kommunikatsionniye texnologii v pedagogicheskom obrazovanii. – Moskva: Akademiya, 2020. – 240 b.